

**TABIIY RESURSLARDAN FOYDALANISHDA  
EKOLOGIYA FANINING AHAMIYATI**

*Ergashev Husniddin Saydali o'g'li*

*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining*

*Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi*

*h7858691@gmail.com*

*Telefon: +998 91 323 91 90*

**Annotatsiya:** Inson hayoti va faoliyati davomida tabiatdan foydalanadigan barcha turdagi tabiat ne'matlariga tabiiy resurslar deyiladi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ba'zida tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish va qazib olish jarayonida ekologiyaga katta zarar yetadi. Ushbu maqolada tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda ekologiya fanining ahamiyati, oqilona foydalanish usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ekologiya, inson faoliyati, tabiiy resurslar, yer, suv, mineral, tugaydigan va tugamaydigan resurslar, tabiatga ta'sir.

**Abstract:** Natural resources are all kinds of natural resources that people use during their life and activities. Rational use of natural resources is one of the most pressing issues today. Sometimes, in the process of improper use and extraction of natural resources, great damage is done to the environment. This article provides information about the importance of ecological science in the rational use of natural resources, and the methods of rational use.

**Key words:** ecology, human activity, natural resources, land, water, mineral, exhaustible and non-exhaustible resources, impact on nature

**Kirish.** Tabiat resurslari, tabiiy boyliklar — jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, inson o'zining hayot faoliyati uchun tabiatdan oladigan va kelajakda olishi mumkin bo'lgan, xo'jalikda foydalaniladigan hamda insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan, uni o'rab turgan tabiiy muhitning barcha tabiat komponentlari, energiya manbalari hisoblanadi. Tabiat resurslariga Quyosh energiyasi, Yerning ichki issiqligi, suv, yer, mineral boyliklar, foydali qazilmalar, o'simliklar, tuproqlar, hayvonot dunyosi kabilar kiradi. Tabiat resurslari tugaydigan (ko'pgina foydali qazilmalar), tugamaydigan (suv, havo, Quyosh nuri, Yerning ichki energiyasi) va tiklanadigan (biologik elementlar, ayrim foydali qazilmalar) resurslarga bo'linadi.

**Tadqiqot materiallari.** Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda ekologiya fanining ahamiyati katta hisoblanadi. Ekologiya tabiiy fan bo'lib, u organizmlarning bir-biri va tashqi muhit sharoiti bilan o'zaro munosabat qonuniyatlarini o'rganadigan fan hisoblanadi. Uning maqsadi- hozirgi va kelajak avlodlar uchun ekologik xavfsiz muhitni

ta'minlash, organizmlarning barqaror holatda ko'payishi, o'sishi va rivojlanishi uchun toza, sog'lom va qulay atrof tabiiy muhit holatini yaratishdan iborat. Yer osti qazilmalarini qazib olish jarayonida ham atrof – muhitga kata miqdorda jiddiy zarar yetkaziladi. Qazilma boyliklarini qazib olish, tashish, qayta ishlash vaqtida atrof-muhit ifloslanadi. Minglab industrial yerlar dashtlarga aylanadi. Suv, havo, tuproq, o'simlik va hayvonot olamiga zarar yetkaziladi. Tog'-kon sanoati korxonalari faoliyati natijasida har yili kon usti jinslari, flotatsion boyitish chiqitlari, turli xil shlaklar, klenkerlar hosil bo'ladi. Mineral xomashyolar ochiq (karyer) yoki yopiq (shaxta) usullarida qazib olinadi. Ochiq usulda qazib olingan tabiiy resurslardan ancha to'laroq foydalanish imkoniyati bo'lsa-da, ekologiyaga ko'rsatadigan ta'siri yuqori bo'ladi. Bularning hammasi ekologiya fani bilan chambarchas bog'liq/

**Tadqiqot natijalari.** Ekologiya fani tabiat resurslaridan oqilona foydalanishda va tabiatni muhofaza qilishda ilmiy asos bo'lib hizmat qiladi.

Ekologiya fani antropogen va turli tabiiy omillar ta'sirida tabiatdagi bog'lanishning buzilishi to'g'risida ma'lumot beradi. Ekologiya atamasi yunonchada “oikos”- uy, yashash joyi, yashash muhiti, “logos”- talimot degan ma'noni bildiradi. Ekologiya fanining vazifasiga esa quyidagilar kiradi:

— Hayotning tashkil topish qonuniyatlarini inson ta'sirini hisobga olgan holda o'rganish;

— Insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida tabiatda ro'y beradigan o'zgarishlarni oldindan bilish;

— Biosferadagi kechayotgan jarayonlarni o'rganish, boshqarish, bashorat qilish, inson yashaydigan muhitni saqlab qolish;

— Buzilgan tabiiy tizimlarni tiklash; shu jumladan foydalanishdan chiqarilgan qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini yana ishga solish (rekultivatsiya), yaylovlarning tuproq hosildorligini, suv havzalari va boshqa ekotizimlarning mahsuldorligini tiklash;

— Tabiiy, biologik resurslardan oqilona foydalanishning ilmiy asoslarini yaratish va boshqalar hisoblanadi.

Ekologiyada ishlab chiqarishda ishlatilishi bo'yicha tabiiy resurslar quyidagilarga bo'linadi:

- yer fondi – dunyo va mamlakat miqiyosidagi hamma yerlar, vazifasiga ko'ra quyidagi toifalarga bo'linadi: qishloq xo'jaligida, yashash punktlari, qishloq xo'jaligida emas (sanoat, transport, qazib olish sanoatida va h.k)

- o'rmon fondi - alohida muhofaza qilinadigan hududlarni tashkil qilish uchun o'rmonlar o'sadigan yoki o'sishi mumkin bo'lgan Sayyoramizning yer fondining bir qismi;

- suv resurslari - xo'jalikda xilma-xil maqsadlarda ishlatiladigan yer osti va yer usti suvlari (alohida o'rinni chuchuk suv zaxiralari egallaydi)

- gidroenergetika resurslari - daryo, dengizning pasayish - ko'tarilish faoliyati

natijasida hosil bo'ladigan resurslar.

- fauna resurslari - inson ekologik muvozanatni buzmaganda holda suv, o'rmon, cho'llardagi tirik mavjudotlarni ishlatishi mumkin bo'lgan resurslar.

- qazilma boyliklar (rudali va rudamasli, yoqilg'i-energetika resurslari) - xo'jalikda ishlatilishi mumkin bo'lgan yer qobig'idagi minerallarning tabiiy yig'indisi.

Inson va jamiyat hayotini tabiiy resurslarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Suv, havo, tuproq eng asosiy tabiiy resurs hisoblanadi.

### MUHOKAMA

Bu keltirib o'tganlarimiz tabiiy resurslardan oqilona foydalanish haqida yo'l-yo'riq hamda eng asosiy qoidalar hisoblanadi:

- ❖ barcha tabiiy resurslardan uzoqni ko'zlagan holda foydalanish;
- ❖ atrof tabiiy muhitini barqaror saqlash;
- ❖ konlardan qazilmalarni to'liq qazib olish;
- ❖ atrof-muhitning buzilishiga yo'l qo'ymaslik;
- ❖ barcha qimmatli moddalardan majmual-mukammal foydalanish;
- ❖ geologik qidiruv ishlarini tadrijiy davom ettirish;
- ❖ mahsulot birligiga sarf bo'ladigan xomashyo va yoqilg'ini tejaydigan texnika va texnologiyani qo'llash;
- ❖ malakali mutaxassislarni tayyorlash.

### XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali nafaqat bugungi kunda atrof- muhitni muhofaza qilish balki, ertangi kundagi avlodlarga meros qilib iflos havo yoki suvni emas balki toza, musaffo osmonni qoldirganimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero – "Tabiat ajdodlarimizdan meros emas, balki kelajak avloddan olingan qarzdir". Hozirgi global rivojlanayotgan zamonda tabiatni asrash - o'zimiz uchun ham, atrofimizdagi odamlar uchun ham, kelajak avlod uchun ham, qolaversa jamiki tirik mavjudot uchun juda muhim hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ergashev A. Ergashev T. "Ekologiya , biosfera va tabiatni muhofaza qilish" Toshkent "Yangi asr avlodi" 2005 y.
2. Peter Rillero, Dinah Zike. Ecology, (2005)
3. Buriyev S.S Mahkamov D.A Sherimbetov V.X "Ekologiya va atrof muhit muhofazasi" Toshkent Innovatsion-Ziyo nashriyoti 2020-y
4. N,SH Tulyaganova, M.B Ashirov, B.F Adilov, M.S Karabayev, D.M Ilyasova "Umumiy va tarixiy geologiya" Toshkent Innovatsion-Ziyo nashriyoti 2020-y
5. Simon A. Levin. Ecology, (2009)